

EKOLOGIK MADANIYATNI YUKSALTIRISHDA EKOLOGIK TOLERANTLIKNING O‘RNI

Bayeshanov Abdulla

Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi global ekologik inqiroz, tabiat va inson o‘rtasidagi munosabatlar taranglashib borayotgan bir sharoitida ekologik tolerantlik hodisasining ontologik, aksiologik va ijtimoiy-falsafiy mohiyati, ekologik madaniyatni yuksaltirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, antroposentrik dunyoqarashdan voz kechish, tabiatning qonunlarini hurmat qilish, biosfera me‘yorlarini anglash hamda tabiiy borliq bilan uyg‘un holda adolatli munosabat o‘rnatish jarayonlari falsafiy tahlil qilingan. Yangi O‘zbekistondagi ijtimoiy transformatsiyalar kontekstida Ijtimoiy davlat, mahalla instituti va uzluksiz ta‘lim tizimining jamiyat va uning a‘zolarida ekologik tolerantlik madaniyatini shakllantirishdagi roli yoritilgan.*

Kalit so‘zlar. *Ekologik tolerantlik, biotsentrizm, Aldo Leopold, mahalla, yashil madaniyat.*

Insoniyat tarixiy taraqqiyoti davomida hamisha tabiat va inson munosabatlari tizimida muvozanat izlab kelgan. Odamzot tabiatni bo‘ysundirish, uning boyliklarini cheksiz o‘zlashtirish va tabiat qonuniyatlarini o‘z manfaatlariga xizmat qildirishni ilm-fan taraqqiyoti bilan bog‘lab, muayyan ma’noda o‘zini oqlashga urungan. Ammo, bu bir tomonlama, faqat inson manfaatigagina xizmat qiluvchi yondashuv oxir-oqibat global ekologik inqirozni keltirib chiqardi. Aynan mana shunday sharoitda ekologik tolerantlikka ehtiyoj ortib bormoqda. “Tolerantlik - (lot. tolerantia — sabrtoqat), bag‘rikenglik — o‘zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg‘ulari, fikr-mulohazalari, g‘oyalari va e‘tiqodlariga nisbatan toqatli bo‘lish”[1] degan ma’nolrni anglatadi. Odatda “tolerantlik”(bag‘rikenglik) so‘zi ijtimoiy-siyosiy, millatlararo yoki dinlararo munosabatlarga nisbatan qo‘llanilishiga o‘rganib qolingan. Vaholanki, bugungi kunda bu tushunchaning ko‘lami va ontologik doirasi keskin kengaydi.

Ekologik tolerantlik - bu insonning antroposentrik dunyoqarashdan voz kechib, tabiatning ichki muvozanatini, bio-xilma-xillikni va tabiiy chegaralarni ongli ravishda tan olishi hamda u bilan uyg‘un holda yashash qobiliyatidir. Yangi O‘zbekistonda barpo etilayotgan Ijtimoiy davlat va fuqarolik jamiyati sharoitida ekologik xavfsizlikni ta‘minlash hamda fuqarolarning ekologik madaniyatini oshirish strategik vazifa qilib belgilangan. Inson hayoti va salomatligi uchun qulay atrof-muhitga ega bo‘lish huquqi Konstitutsiya darajasida mustahkamlandi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 49-moddasida: “Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga ega. Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta‘minlash va atrof-muhitga zararli ta’sir ko‘rsatilishiga

yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkaziladi. Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi”[2],-deya mustahkamlab qo‘yilgan. Bu o‘z navbatida jamiyat a‘zolarida ekologik tolerantlikni alohida ma‘naviy-axloqiy va ijtimoiy qadriyat sifatida tarbiyalashni taqozo etadi. Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan ekologik tolerantlik oddiy chidam yoki e‘tibor bermasdan yashash kerak degani emas. U - insonning tabiatdagi o‘zining haqiqiy o‘rmini anglab yetishidan, u bilan uyg‘un ekanligini his qilish orqali vujudga keladigan ongli va faol bag‘rikenglikdir.

Ekologik tolerantlik ontologik va gnoseologik jihatdan bir qancha falsafiy prinsiplarga tayanadi. Eng avvalo, tabiatning ichki qiymatini tan olish. Bu nima degani? Klassik antropotsentrizm tabiatni faqat inson uchun foydali bo‘lgandagina qiymatga ega deb bilgan. Ekologik tolerantlik esa har bir biologik tur, daryo, o‘rmon va ekotizim inson ehtiyojidan qat’i nazar, o‘z-o‘zidan yashash huquqiga va oliy qiymatga ega ekanligini uqtiradi.

Antroposentrik dunyoqarashning asosi bo‘lgan egoizm, ya’ni insonni butun tabiat, koinotni mutlaq egasi emas, balki tabiat zanjirining oddiy bir qismi deb qabul qiladi. Ekologik me’yorni bilishi shart. Tabiat har doim ham o‘zini-o‘zi tiklash qobiliyatini tez va cheksiz amalga oshira olmasligini tushunish.

Insonlar nega tabiatga nisbatan shafqatsiz va chidamsiz bo‘lib qoldi? Buning sababi asrlar davomida shakllangan iste’molchilik va utilitar dunyoqarashdir. Odamlar tabiatni cheksiz ne’matlar beruvchi tunganmas resurs manbayi deb qabul qildi.

Amerikalik faylasuf va tadqiqotchi Roberta Milsteyn ta’kidlaganidek, Aldo Leopold o‘zining “Yer etikasi” konsepsiyasida: “Xatti-harakat biologik jamoaning yaxlitligi, barqarorligi va go‘zalligini saqlashga xizmat qilsa - u to‘g‘ridir va axloqiydir. Agar aksincha bo‘lsa - u noto‘g‘ridir”[3]. Jamiyatda ekologik tolerantlik o‘z-o‘zidan shakllanib qolmaydi. Bunga erishish uchun barcha birgalikda, bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishi kerak. eng avvalo, davlat fuqarolarida ekologik tolerantlik shakllanishi uchun barcha qulay shart-sharoitni yaratib berishi lozim. Barcha hududlarda yashil makonlarni ko‘paytirish, chiqindilarni tashlash va saralashga imkoniyat yaratib berish, eng asosiysi huquqiy jihatlarini hal qilishi lozim. Har qanday ekologik huquqbuzarlik qonuniy jazosiz qolmasligini ta’minlashi lozim.

O‘zbekiston sharoitida hashar, suvni isrof qilmaslik, daraxtlarni parvarishlash, tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishdek qadriyatlarni zamonaviy ekologik talablar bilan sintez qiluvchi maskan bu albatta mahalla hisoblanadi. Mahalla jamoatchilik nazorati va shaxsiy namuna ko‘rsatish orqali tabiatga bo‘ladigan tajovuzlarni oldini oladi va ekologik tolerantlikni shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

Ta’lim tizimi orqali ham ekologik tolerantlikni shakllantirish mumkin. Bog‘chadan boshlab bolalar ongiga o‘zini tabiatning bir qismi ekanligini, barcha borliqdagi mavjudodlar yashashga haqli ekanligini singdirishi lozim.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ekologik tolerantlik - bu insonning tabiat ustidan hukmronlik qilishga bo‘lgan ishtiyoqidan voz kechishi demakdir. Bu tushuncha tabiat qonuniyatlari, bio-xilma-xillik va tabiiy me’yorlar bilan muvozanatda yashashni anglatadi. Yangi O‘zbekistonda ekologik tolerantlik madaniyatini yuksaltirish ijtimoiy davlatning huquqiy kafolatlari, mahalla institutining an’anaviy-axloqiy ta’siri hamda uzluksiz ta’lim tizimining ma’rifiy imkoniyatlari orqali ta’minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – T.: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2000. – B. 475
2. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi. T.: O‘zbekiston, 2023
3. Millstein R. L. The Land Is Our Community: Aldo Leopold’s Environmental Ethic for the New Millennium. – Chicago; London: The University of Chicago Press, 2024. – 183p. <https://doi.org/10.7208/chicago/9780226834474.001.0001>
4. Bayeshanov, A. (2025). INSON EKOLOGIYASI: TABIAT VA INSON UYGUNLIGI. Академические исследования в современной науке, 4(36), 35-38.
4. Karimova, S. (2022). Ma’furaviy xavfsizlikni ta’minlashning tarkibiy funksional tahlili. Общество и инновации.
5. BAYESHANOV, A. (2026). O‘ZBEKISTONDAGI EKOLOGIK MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHDA BIOSENTRIZM VA EKOLOGIK VIJDON OMILINING IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLILI. «ACTA NUUZ», 1(1.3), 50-52.